



FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 27-sentabr

113-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 28 va 73-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-yanvardagi “Mahalliy Davlat boshqaruvi organlari xizmatchilari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2722-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasining 2021-yil 27-noyabr kungi 05-1-3417-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-oktyabrdagi 03/1-699-topshiriq xatlari ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Buvayda tumaniga birlashtirilgan Bo‘zatov tumani Aspantoy OFY va Ko‘ksuv OFYlarda yashovchi aholi xonadonlaridagi oilalarning bandligini ta‘minlash, ushbu xududda tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kambag‘allikni qisqartirish maqsadida omuxta yem ishlab chiqarish va matoga gul bosish uchkunalarini sotib olish hamda ularni joyiga yetkazib o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlarga 31.0 (o‘ttiz bir) million so‘m mablag‘ Buvayda tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun tasdiqlangan zahira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Buvayda tumani hokimligi bosh xisobchisiga:

- ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman G‘aznachilik xizmati bo‘linmasiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirish va maqsadli foydalanishini nazorat qilish, Buvayda tumani bo‘yicha G‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga ajratilayotgan mablag‘larning xarajatlar tasnifiga aniqlik kiritish va to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Maxsitaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



**IBRAGIMOV
BEXZOD.ODILJONOVICH**